



KO'P QAVATLI AVTOTURARGOHLARDA INTELLEKTUAL TIZIMLARNI QO'LLASH ORQALI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

¹Xalilova Gulira'no Xolmurot qizi

Toshkent davlat transport universiteti, doktorant,

²Samatov Rustam Gafforovich

Toshkent davlat transport universiteti, t.f.n., dots,

³Abdurazakova Dildora Anvarovna

Toshkent davlat transport universiteti, katta o'qituvchisi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7854449>

ARTICLE INFO

Received: 12th April 2023

Accepted: 21th April 2023

Online: 22th April 2023

KEY WORDS

Ko'p qavatli avtoturargoh, telematik vositalar, aqlli avtoturargoh, electron qurilmalar, shaharsozlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi kunda shahar markazlari jamoat joylarida ko'p qavatli avtoturargohlar tashkil qilish va ularni telematik vositalar bilan jihozlash orqali "aqlli avtoturargoh"ga aylantirish samaradorliklari haqida so'z boradi.

Hozirgi kunda dunyo aholisi har kuni transport xizmatidan foydalanadilar. Bu esa avtomobillar har doim to'xtash joyiga muxtoj bo'ladi deganidir. Odatda jamoat joylarida ko'pgina haydovchilar foydalana oladigan avtoturargohlar tashkil etilgan. Biroq, bunday loyihalardagi dastlabki muammo barcha fuqarolarga qulay xizmat ko'rsatish va gavjum shahar markazlarida transportning avtoturargoh qidirishdagi yuradigan yo'lini kamaytirish mumkin bo'lgan qulay joyni topishdir.

Ko'chadan tashqarida jamoat avtoturargohlarini joylashtirish muammosi uchun odatda to'rtta maqsad inobatga olib, ko'rib chiqiladi. Ularga tirbandlikni kamaytirish, qamrovga bo'lgan talabni maksimal darajada oshirish, talab nuqtalari va yangi to'xtash joylari o'rtasidagi yurish masofasini minimallashtirish va tegishli xarajatlarni kamaytirishlar kiradi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi PQ-59-son "Jamoat transport tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida avtoturargohlar muammosini hal qilishga doir band berilgan bo'lib, unga ko'ra, Toshkent shahrida ko'p qavatli avtoturargohlarni qurish va ularni tayyor biznes sifatida tadbirkorlik subyektlariga berishtartibini ishlab chiqish vazifasi berilgan.

Vazirlar mahkamasining qarori loyihasini o'rnatilgan tartibda ishlab chiqish va kiritishda quyidagilar nazarda tutilishi belgilab berilgan.

- Toshkent shahrida maxsus tashkil qilingan davlat muassasasida yer uchastkalarini ajratgan holda ko'p qavatli avtoturargohlar qurish va ularni tayyor biznes sifatida tadbirkorlik subyektlariga avtoturargoh profilini o'zgartirmaslik sharti bilan berish;
- ko'p qavatli avtoturargohlarni o'z tannarxining **10 foiz** miqdorida boshlang'ich qiymatida elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish imkoniyatini taqdim etish;
- mazkur joylar qurilishini moliyalashtirish respublika va mahalliy budjetlari daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismidan teng ulushlarda amalga oshirish;

- birinchi bosqichda avtotransportlar oqimi to'planuvchi manzillarda kamida **4 ta ko'p qavatli avtoturargohlarni** qurish joylarini tanlash [1].

Ushbu qarorning amalga oshirilishi Toshkent shahrida jamoat joylarida ko'p qavatli avtoturargohlar tashkil qilinishi orqali haydovchilar transport vositalarini joylashtirishlari uchun sharoitlar yaratish orqali yo'llarda yuzaga keladigan tirbandliklarni kamaytirish va xavfsizlikni ta'minlash hisoblanadi.

Ko'p qavatli avtoturargohlar qurish va ularni zamonaviy vositalar bilan jihozlash orqali jamoat joylarida avtoturargohlar sabab kelib chiqayotgan tirbandliklarni oldini olish va avtoturargoh izlashda kelib chiqadigan muammolar bartaraf etilishi mumkin bo'ladi. Intellectual transport tizimlari- "aqlli shahar" larni tashkil qilishning asosiy qismi hisoblanadi. Bunda internet tarmoqlari, intellektual tizim va texnologiyalar, telematik vositalar va shu kabilardan foydalaniladi. Shu bilan birga "aqlli avtoturargoh" tizimi esa "aqlli shahar" tashkil qilishning eng asosiy qismi hisoblanadi.

Ko'chadan tashqari to'xtash joylarini quyidagi keltirilgan zamonaviy avtomobillar turar joylari kabi loyihalash mumkin (1-rasm).

Intellectual transport tizimi bu- transport muammolarini minimallashtirish orqali transport samaradorligiga erishishga qaratilgan sistema hisoblanadi. U foydalanuvchilarga trafik haqida oldindan ma'lumot yetkazish, mahalliy qulayliklar, mavjudlik va boshqalar haqida real vaqt rejimida ma'lumot beradi.

Bu qulayliklar yo'lovchilar uchun sayohat vaqtini qisqartiradi, shuningdek, ularning xavfsizligini oshiradi. Bularning barchasi foydalanuvchilarga ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish va transport tarmoqlaridan xavfsizroq va "aqlli" foydalanishni ta'minlash imkonini beradi [4].



**1-rasm. Zamonaviy ko'p qavatli avtomobillar to'xtab turish joylarining ko'rinishi.**

Bugungi kunlarda qilingan ishlarga e'tibor beradigan bo'lsak, Niderlandiyaning Amsterdam shahrida avtomobillarning to'xtab turishi uchun taklif qilinayotgan joylar soni 211457 tani tashkil qiladi.

Shaharning umumiy byujeti 5-6 milliard yevroni tashkil qiladi, shundan yiliga 140 million yevrosi avtomobillar to'xtash joylari hisobiga to'g'ri keladi [2, 3].

Qurib bo'lingan shaharda avtoturargohlar yetishmasligi muammosini hal qilish bir muncha qiyin bo'ladi. Shu sababdan, yangi loyihalanayotgan binolarning qurilishida avtoturargoh bilan ta'minishi ham alohida e'tiborga olinishi maqsadga muvoffiq bo'ladi.

Demak, zamonaviy ko'p qavatli avtoturargohlarni loyihalash va qurishda ko'p jihatdan foydali va samarali bo'ladi.

References:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-6386205>.
2. Azizov K.X., Mamaev G'I., "Shahar ko'chalaridagi tashkil qilinmagan
3. avtomobillar to'xtash joylari tahlili" Me'morchilik va qurilish muammolari. Ilmiy-texnik jurnal 2019 №2. 105-107 b.
4. Галкина Н.Г., Зарубежный опыт организации парковок, ХНАДУ, 2009г.
5. Душкин, Р. В. Интеллектуальные транспортные системы:
6. монография / Р. В. Душкин. — Москва: ДМК Пресс, 2020. — 280 с. — ISBN 978-5-97060-887-6. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/190755> (дата обращения: 20.01.2022). — Режим доступа: для авториз. пользователей.
7. Xalilova, G. X. (2022). O'QUVCHI VA TALABALARNING AVTOBUSDA HARAKATLANISHINI OPTIMALLASHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN SMART ILOVALAR QO'LLASH. Eurasian Journal of Academic Research, 2(10), 167-171.
8. Xalilova, G. X. (2022). AQLLI AVTOTURARGOHLAR TASHKIL QILISHDA PYTHON DASTURIDA YARATILGAN PROGRAMMA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 916-918.



9. Urokovich, K. A., & Dostmurodovich, S. O. (2022). Issuing the Plan for the Development of the Automobile Road Network. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education*, 1(5), 195-201.
10. Kuziev, A. U., & Suyunov, O. D. (2023). THE PROBLEM OF DELIVERY OF COTTON RAW FLOWS THROUGH MINIMUM COST TRANSPORTATION. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 328-332.